XALQ DEPUTATLARI DENOV TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 26-oktabr VI-91-100-8-111-K/24 Denov tumani

Denov tumanidagi har bir mahallaning chegarasi, ko‘chalar nomi ko‘rsatilgan xaritalarini tasdiqlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi, Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 10-maydagi “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha respublika komissiyasining “Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi, tegishli vazirlik va idoralar hamda mahalliy hokimliklar tomonidan geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar hamda sohadagi dolzarb masalalar to‘g‘risida” 35-sonli Rayosat Majlisi yig‘ilish bayoni hamda tuman hokimining 2024-yil 29-maydagi 01-01/42-sonli yig‘ilish bayoniga asosan, xalq deputatlari Denov tumani Kengashi:

Q A R O R Q I L A D I:

1. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 10-maydagi “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha respublika komissiyasining “Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi, tegishli vazirlik va idoralar hamda mahalliy hokimliklar tomonidan geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar hamda sohadagi dolzarb masalalar to‘g‘risida” 35-sonli Rayosat Majlisi yig‘ilish bayoni hamda tuman hokimining 2024-yil 29-maydagi 01-01/42-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Denov tumanidagi har bir mahallaning chegarasi, ko‘chalar nomi ko‘rsatilgan xaritalari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ta’kidlansinki:

mahallalar chegaralarini belgilash jarayonida har bir mahalla bo‘yicha chegaralar tavsiflanadi;

chegaralar tavsifida ular bo‘yicha chegara belgilanadigan ko‘chalar, tabiiy va sun’iy obyektlar nomlari, chegaralar yo‘nalishi keltiriladi;

har bir mahallaning chegarasi, ko‘chalar nomi ko‘rsatilgan xaritalari va tavsifini tayyorlash Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 10-maydagi yig‘ilish bayoniga asosan Kadastrlar palatasi Surxondaryo viloyati boshqarmasi Denov tumani filiali tomonidan o‘n besh kun mobaynida amalga oshirilsin.

4. Denov tumani hokimining birinchi o‘rinbosari (M.Rasulov), tuman moliya bo‘limi (X.Primov) zarur mablag‘larni mahalliy budjetdan belgilangan tartibda ajratish choralarini ko‘rsin.

5. Kadastrlar palatasi Surxondaryo viloyati boshqarmasi Denov tumani filiali (T.Ismoilov):

Denov tumanidagi har bir mahallaning chegarasi, ko‘chalar nomi ko‘rsatilgan xaritalarini tasdiqlash uchun xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritish ishlarini amalga oshirsin.

6. Kadastr agentligi huzuridagi Davlat kadastrlari palatasining tuman bo‘limi (T.Ismoilov):

Denov tumanidagi har bir mahallaning chegarasi, ko‘chalar nomi ko‘rsatilgan, tasdiqlangan xaritani mahalla idorasiga o‘rnatish choralarini ko‘rsin.

7. Tuman hokimligi axborot xizmati (F.To‘rayeva) mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishi bilan tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga yoritilishini ta’minlasin.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Ch.Murodov) va O‘zbekiston mahallalari uyushmasining tuman bo‘limi (I.Irkabayev), Kadastr agentligi huzuridagi Davlat kadastrlari palatasining tuman bo‘limi (T.Ismoilov) zimmasiga yuklansin.

9. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi ABROROV ILXOM IBRAXIMOVICH

Xalq deputatlari Denov tumani
Kengashining
2024-yil 26-oktabrdagi
VI-91-100-8-111-K/24 -son qaroriga
1-ilova

